Yosh olimlarning hamkorlik uchrashuvi

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yosh olimlar kengashi Belorusiya Respublikasi Fanlar akademiyasi Yosh olimlar kengashi delegatsiyasi va Toshkent davlat Agrar universiteti “Ijtimoiy—gumanitar fanlar” kafedrasi yosh, tashabbuskor olimlarining ilmiy xalqaro toifadagi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda har uchala tashkilot vakillari ishtirok etdilar.

Belarus Milliy Fanlar akademiyasi yosh olimlar Kengashi delegatsiyasi, Fanlar Akademiyasi Materialshunoslik institutidagi noyob ilmiy obyekt – Katta quyosh sandonini ko‘rishga borishdi va u yerdagi ilmiy jarayonlar, yangi loyihalar bilan tanishishdi.

Shundan so‘ng delegatsiya Fanlar akademiyasining Zoologiya instituti hamda Botanika bog‘ida bo‘ldilar. Tashrif buyurgan mehmonlar bilan kelajakda hamkorlik loyihalarini kelishish maqsadida hamkorlik uchrashuvi tashkil etildi. Uchrashuvni Yosh olimlar Kengashi rais o‘rinbosari, TDAU ijtimoiy-gumanitar kafedrasi dotsenti Gulsanam Tillayeva olib bordi. Yoshlar o‘zlarning tadqiqotlari, yangiliklari yuzasidan fikrlar almashishdi.

Uchrashuv so‘ngida xalqaro hamkorlik borasida kelgusidagi rejalar belgilab olindi.